

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING AYRIM QARORLARIGA
O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA (O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "JAMIyatda ijTIMOIY-MA'NAViy MUHITNI
SOG'LOMLASHTIRISH, MAHALLA INSTITUTINI YANADA QO'LLAB-QUVVATLASH
HAMDA OILA VA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI YANGI DARAJAGA
OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA" 2020-YIL 18-FEVRALDAGI PF-
5938-SON FARMONI)**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son **Farmoni** ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga **ilovaga** muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi manfaatdor vazirliklar va idolar bilan bирgalikda o'zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari B.A. Musayev hamda O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri R.T. Mamatov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 7-dekabr,
772-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-dekabrdagi 772-son **qaroriga**
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 4-son, 25-modda) bilan tasdiqlangan Dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirishga yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomning **7-bandidagi** "fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi (mahalla qo'mitasi) vakilidan" so'zları "masjid imom xatibi" so'zları bilan almashtirilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-iyuldaggi 202-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 7-son, 64-modda) bilan tasdiqlangan Aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash qoidalari 21-bandining **ikkinchi xatboshi** chiqarib tashlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining "Simobli lampalarning ishlatalib bo'lgan resurslarini to'plash va ularni utilizatsiya qilishni tashkil etish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2011-yil 21-sentabrdagi 266-son qarorining (O'zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 9-son, 79-modda) 8-bandini **uchinchchi xatboshisidagi** "va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" so'zları chiqarib tashlansin.

4. Vazirlar Mahkamasining "Respublika aholisi va budget tashkilotlariga ko'mir mahsulotlari yetkazib berish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 30-dekabrdagi 422-son qarorining 5-bandi **oltinchi xatboshidagi** "fuqarolar yig'inlari raislari ichki ishlar organlari va davlat soliq inspeksiyalari bilan bирgalikda" so'zları "ichki ishlar organlari va davlat soliq inspeksiyalari" so'zları bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-iyundagi 364-sun qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 6-sun, 96-modda) bilan tasdiqlangan “Haj” va “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) 14¹-bandning **ikkinchi xatboshidagi** “profilaktika inspektori” so‘zлari chiqarib tashlansin; **ikkinchi xatboshidagi** “Xotin-qizlar qo‘mitasi va O‘zbekiston faxriyalarini ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi vakillari” so‘zлari “fuqarolar yig‘ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, fuqarolar yig‘ini raisining Keksalar va faxriyalar ishlari bo‘yicha maslahatchisi” so‘zлari bilan almashtirilsin.

b) 37-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “va ichki ishlar organlarining profilaktika inspektori” so‘zлari chiqarib tashlansin.

6. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyuldagи 467-sun qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 7-sun, 623-modda) bilan tasdiqlangan O‘zboshimchaliq bilan qurilgan imoratni aniqlash hamda bartaraf etish (buzib tashlash)ni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning **8-bandida**:

a) **birinchi xatboshidagi** “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda” so‘zлari chiqarib tashlansin;

b) **beshinchi xatboshidagi** “va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi” so‘zлari chiqarib tashlansin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 681-sun qarori (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 8-sun, 190-modda) bilan tasdiqlangan “Kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Konsorsium” MChJ tomonidan zayom berish tartibi to‘g‘risidagi nizomning **29-bandagi** “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xodimi ishtirokida” so‘zлari chiqarib tashlansin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-martdagи 205-sun qarori bilan tasdiqlangan Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) 4-bandning **ikkinchi xatboshidagi** “profilaktika inspektori” so‘zлari chiqarib tashlansin;

b) 11-bandning **birinchi xatboshidagi** “har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar Kengashga ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq ma’lumot taqdim etadi” so‘zлari “ma’lumotlarni umumlashtirib, mahalla pasportiga kiritadi va har olti oyda ushbu ma’lumotlarni yangilab boradi” so‘zлari bilan almashtirilsin;

v) **3-ilova** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagи 272-sun qarori bilan tasdiqlangan Majburiy texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalarining hisobini yuritish, ularning holatini aniqlash, shuningdek, foydalanishga yaroqsiz, utilizatsiyaga topshiriladigan yoki realizatsiya qilish maqsadida qismlarga bo‘linadigan transport vositalarini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 7-bandi **to‘rtinchи xatboshisidagi** “Profilaktika inspektori guruh rahbari hisoblanadi” so‘zлari chiqarib tashlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagи 334-sunli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-sun)

11. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-apreldagi 228-sun qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 20120 y., 4-sun, 85-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Obod va xavfsiz mahalla” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomning **6-bandiga** quyidagi mazmundagi o‘n ikkinchi — o‘n to‘rtinchи xatboshilar qo‘shilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

Vazirlikning ekspert-tahlil guruhi faoliyatini tashkil etish, ekspert-tahlil guruh tarkibiga kiritilgan mutaxassislarga shartnoma asosida haq to‘lash, mahalliy va xorijiy ilmiy muassasalar, olim va mutaxassislarni, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida jalb qilish;

Vazirlikning aholi muammolarining masofadan tezkor qabul qilishning va ko'rib chiqilishini muvofiqlashtirib boruvchi Sall-markazi xodimlari mehnatiga shartnomaga asosida haq to'lash".

12. Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolar yig'inlari faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2020-yil 14-avgustdag'i 485-son **qarorida**:

a) 3-bandining **to'rtinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"yil yakuni natijalari bo'yicha "namunali" deb topilgan fuqarolar yig'inlari xodimlari va jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan shaxslarga respublika hududidagi sanatoriylardan birida sog'lig'ini tiklash uchun bir marotabalik bepul yo'llanma berish amaliyoti saqlab qolinadi hamda tegishli talablarga javob beruvchi fuqarolar yig'inlari xodimlari rag'batlantirish tariqasida davlat organlari va tashkilotlariga kadrlar zaxirasiga kiritish bo'yicha tavsiya etiladi";

b) **ilovaga** quyidagi tahrirdagi 23¹-band qo'shilsin:

"23¹. "Namunali" deb topilgan va tegishli talablarga javob beruvchi fuqarolar yig'inlari xodimlarini yil yakuni natijalari bo'yicha rag'batlantirish tariqasida ular belgilangan tartibga muvofiq davlat organlari va tashkilotlariga kadrlar zaxirasiga kiritish bo'yicha tavsiya etilishi mumkin".

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2020-y., 09/20/772/1605-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)